



## **GLOBALLASHUV DAVRIDA MIGRATSIYA HUSUSIYATLARI VA OMILLARI**

**Raxmonaliyev Baxrom**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tadqiqotchisi**

**Annotatsiya:** Ilmiy tezisada globallashuv sharoitida Turkiya Respublikasida yuzaga kelgan migratsiya jarayonlari, ularning shakllanish omillari, zamonaviy xususiyatlari va geosiyosiy oqibatlari tahlil qilinadi. Turkiya migratsiyaning murakkab va ko‘p qatlamli ko‘rinishlari bilan to‘qnash kelayotgan davlatlardan biri sifatida, globallashuv davrida ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillar ta’sirida shakllanayotgan yangi migratsiya modelini ishlab chiqmoqda. Ayniqsa, Suriyalik qochqinlar inqirozi, xalqaro mehnat migratsiyasi, va Yevropa Ittifoqi bilan bo‘lgan hamkorliklar orqali Turkiya zamonaviy migratsiya siyosatini shakllantiruvchi global aktyorga aylanmoqda. Maqolada shuningdek, Turkiya migratsiya siyosatining institutsional bazasi va xalqaro hamkorlikdagi pozitsiyasi ham yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** globallashuv, migratsiya siyosati, Turkiya modeli, qochqinlar, transmilliy migratsiya, migratsiya omillari, tashqi siyosat, mehnat migratsiyasi, Yevropa Ittifoqi, ijtimoiy integratsiya.


XXI asrda globallashuv jarayoni xalqaro siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarning keskin kengayishiga sabab bo‘ldi. Bu jarayon shuningdek, migratsiya jarayonlariga ham yangi tus berdi. Ilgari migratsiya ko‘proq mintaqaviy va iqtisodiy ehtiyojlar bilan cheklangan bo‘lsa, hozirda u global darajadagi strukturaviy jarayonga aylanib bormoqda. Globallashuv zamonaviy kommunikatsiya vositalari, transport infratuzilmasi, xalqaro tarmoqlar va axborot oqimlari orqali odamlarning geografik harakatlanishini sezilarli darajada osonlashtirdi. Shu bilan birga, global migratsiya yangi xususiyatlar, ko‘lami va sabablarga ega bo‘lib bormoqda.

Globallashuv davrida Turkiyada yuzaga kelgan migratsion vaziyat an’anaviy migratsiyalardan bir qator farqlar bilan ajralib turadi. Birinchi farq bu – migratsiyaning ko‘lami va murakkabligidir. Bugungi kunda Turkiya dunyodagi eng ko‘p qochqinlarni qabul qilgan davlat sifatida tan olinadi. 2024-yil holatiga ko‘ra, Turkiyada 3.5 milliondan ortiq Suriyalik, 300 mingdan ziyod afg‘onistonlik, 100 mingdan ortiq boshqa davlatlardan kelgan muhojirlar istiqomat qilmoqda.

*Ikkinchi xususiyat esa* – migratsiya turlarining diversifikatsiyasidir. Agar ilgari Turkiya asosan iqtisodiy mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq davlat bo‘lgan bo‘lsa, hozirda u majburiy migratsiya, siyosiy boshpana, transchegaraviy savdo, akademik mobilitet va iqlimga bog‘liq migratsiya kabi murakkab shakllar bilan

yuzlashmoqda. Bu esa migratsiya siyosatini faqat bir yo‘nalishli emas, balki kompleks yondashuvlar asosida shakllantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

*Uchinchi farq* – Turkiyaning tashqi siyosatida migratsiyaning vositaga aylanishidir. 2016-yilda imzolangan Yevropa Ittifoqi–Turkiya kelishuvi Turkiyaga o‘z hududidan o‘tuvchi muhojirlar ustidan nazoratni saqlagan holda siyosiy va moliyaviy imtiyozlar olish imkonini berdi. Bu bilan migratsiya geosiyosiy savdolashuv maydoniga aylantirildi. Turkiya endilikda nafaqat migratsiyani boshqaruvchi, balki uni diplomatik vosita sifatida ishlatuvchi davlatga aylangan.



Globalashuv sharoitida Turkiyaga bo‘lgan migratsiya oqimlari bir nechta asosiy omillar bilan belgilanadi:

- Geografik omillar – Turkiya Yaqin Sharq, Kavkaz, Markaziy Osiyo va Yevropa o‘rtasida joylashgan bo‘lib, ko‘plab migratsiya yo‘llarining chorrahasida turadi;
- Siyosiy beqarorlik – Suriyada, Afg‘onistonda, Iroqda va boshqa qo‘shni davlatlarda yuzaga kelgan urushlar va siyosiy inqirozlar Turkiyani asosiy boshpana manziliga aylantirgan;
- Iqtisodiy omillar – Turkiya mintaqadagi iqtisodiy jihatdan barqaror davlatlardan biri bo‘lib, ko‘plab migrantlar uchun ish va yashash imkoniyatlarini taqdim etadi;
- Madaniy va diniy yaqinlik – Islom dini, umumiy tarixiy-madaniy meros ko‘plab musulmon mamlakatlar fuqarolari uchun Turkiyani yaqin deb bilishga sabab bo‘lmoqda;



- Xalqaro migratsiya tarmoqlari – Avvalgi yillarda kelgan muhojirlar tomonidan shakllangan diasporalar yangi migrantlar uchun ijtimoiy va iqtisodiy ko‘mak tarmog‘i vazifasini bajarmoqda.

Turkiya Respublikasida migratsiya jarayonlarini tartibga solish va muvofiqlashtirish masalalari so‘nggi o‘n yillikda davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, 2011-yildan boshlab yuzaga kelgan Suriyalik qochqinlar inqirozi fonida Turkiya o‘z migratsiya siyosatini institutsional va huquqiy jihatdan qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘ldi. Bu jarayon nafaqat qochqinlarni qabul qilish, balki ularning huquqiy maqomini belgilash, yashash sharoitlarini ta‘minlash va jamiyatga moslashtirish singari vazifalarni izchil yo‘lga qo‘yishni talab qildi.

Turkiyada migratsiyani tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat 2013-yil 4-aprelda qabul qilingan “Chet elliklar va xalqaro himoya to‘g‘risidagi qonun” hisoblanadi. Mazkur qonun Turkiya migratsiya siyosatining huquqiy poydevorini yaratib berdi va migratsiya jarayonlarini davlat nazoratiga olib kirish uchun zarur bo‘lgan mexanizmlarni belgilab berdi. Ushbu qonun bilan Turkiya o‘zining xalqaro majburiyatlariga muvofiq ravishda muhojirlar va boshpana izlovchilarga xizmat ko‘rsatish, ularni ro‘yxatga olish, maqom berish va ijtimoiy xizmatlar bilan ta‘minlash kabi ko‘plab funksiyalarni tartibga soldi. Shuningdek, Turkiya BMT Qochqinlar maqomi to‘g‘risidagi 1951-yilgi Konvensiyani imzolagan bo‘lsa-da, unga “geografik cheklov” qo‘ygan holda faqat Yevropa davlatlaridan kelganlarga to‘liq qochqin maqomini beradi. Shu sababli, Suriyalik muhojirlar “muvaqqat himoya” maqomida hisoblanadi.

Mazkur qonun asosida Turkiya Ichki ishlar vazirligi tarkibida Migratsiyani boshqarish Boshqarmasi (DGMM) tashkil etilgan bo‘lib, bu tuzilma mamlakatdagi barcha migratsiya bilan bog‘liq harakatlarni muvofiqlashtiruvchi asosiy institut hisoblanadi. DGMM qonuniy migratsiyani tashkil etish, muvaqqat va doimiy yashash ruxsatnomalarini berish, qochqinlarni ro‘yxatga olish, noqonuniy migratsiyaga qarshi choralarni amalga oshirish, deportatsiya va qaytarib yuborish markazlarini boshqarish kabi keng doiradagi vazifalarni bajaradi. DGMM mamlakatning barcha viloyatlarida o‘z bo‘linmalariga ega bo‘lib, migratsiyaga oid xizmatlarni bevosita joylarda taqdim etadi.

Turkiya xalqaro miqyosda ham migratsiya siyosatini faol olib bormoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqi bilan 2016-yilda imzolangan kelishuv asosida Turkiya o‘z hududidan o‘tuvchi qochqinlar oqimini nazoratga olish evaziga moliyaviy yordam va diplomatik yengilliklar olish imkoniga ega bo‘ldi. Bu esa migratsiyani nafaqat



ijtimoiy masala, balki tashqi siyosatning geosiyosiy vositasiga aylantirdi. Bundan tashqari, Turkiya BMTning Global migratsiya bitimlari, UNHCR, IOM kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib bormoqda.

Davlat tomonidan migratsiyani sotsial muhitga integratsiya qilish uchun axborot kampaniyalari, fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida ko'plab dasturlar joriy qilingan. Xususan, Suriyaliklar uchun ijtimoiy xizmatlar markazlari, kasbga tayyorlov kurslari, bolalar uchun maktablar ochilgan, ko'ngillilar tarmog'i orqali muhojirlarning jamiyatga moslashuvi qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu jarayonda Turkiya xalqaro donorlar va fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda.

Xulosa o'rnida Turkiya migratsiya siyosatining institutsional asoslari so'nggi o'n yillikda izchil shakllanib bordi. Mustahkam huquqiy baza, markazlashtirilgan boshqaruv tizimi, xalqaro hamkorlik va ijtimoiy integratsiyani ta'minlovchi dasturlar orqali Turkiya nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda migratsiyani samarali boshqarayotgan davlat sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, mavjud tizimni yanada takomillashtirish, uning barqarorligini ta'minlash va inson huquqlari tamoyillariga asoslangan yondashuvni kengaytirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. İçduygu, A. Turkey's migration diplomacy and refugee regime // *Migration Studies*. – 2020. – Vol. 8, No. 4. – P. 543–565.
2. Kirişci, K. The Rise and Fall of Turkey's Soft Power // *Brookings Institution*. – Washington, D.C., 2014. – 22 p.
3. European Commission. EU-Turkey Statement: Two Years On. – Brussels: European Union, 2018. – URL: [https://ec.europa.eu/home-affairs/news/eu-turkey-statement-two-years\\_en](https://ec.europa.eu/home-affairs/news/eu-turkey-statement-two-years_en) (sana: 04.04.2025).
4. Republic of Turkey, Directorate General of Migration Management (DGMM). Migration Statistics and Legal Framework. – Ankara: DGMM, 2022. – URL: <https://www.goc.gov.tr> (sana: 04.04.2025).
5. Özerdem, A. Post-conflict Reconstruction in Turkey's Foreign Policy // *Journal of Peacebuilding & Development*. – 2017. – Vol. 12, No. 2. – P. 78–94.
6. UNHCR. Syria Regional Refugee Response: Turkey. – Geneva: UNHCR, 2024. – URL: <https://data.unhcr.org> (sana: 04.04.2025).